


27. Uch xonali sonni bir xonali songa ko'paytirish



Yondosh mavzu:
Tovar narxi

Diagramma,
ustun ko'rinishida ko'paytirish,
ifoda



1. Turli kompaniyalarning sutga qo'ygan narxini taqqoslang.



Eng katta va eng kichik narxlar orasidagi farq qancha?
Sutning narxlarini o'sish tartibida yozing.



2. Ikki xil usulda ifodalangan ko'paytirishni o'rganing.

$$\begin{aligned}
 354 \cdot 7 &= (300 + 50 + 4) \cdot 7 = \\
 &= 300 \cdot 7 + 50 \cdot 7 + 4 \cdot 7 = \\
 &= 2100 + 350 + 28 = 2478
 \end{aligned}$$

Ko'paytirishni namunaga qarab bajaring.

$$243 \cdot 9$$

$$441 \cdot 4$$

$$216 \cdot 6$$

$$723 \cdot 5$$

27. Uch xonali sonni bir xonali songa ko'paytirish

Uch xonali sonni bir xonali songa ko'paytirish uchun:

- 1) bir xonali sonni uch xonali sonning tagiga yozamiz;
- 2) bir xonali sonni uch xonali sonning birliklariga ko'paytiramiz. Hosil bo'lgan sondagi birliklarni ko'payuvchining birliklari ostiga yozamiz, o'nliklarni esa yodda tutamiz (o'nliklarning ustiga yozamiz);
- 3) uch xonali sonlarning o'nliklari va yuzliklari bilan ham xuddi shunday qilamiz;
- 4) hosil bo'lgan sonni o'qiymiz.

	4	7	1	
x	5	9	2	
			8	
4	7	3	6	

	5	5	4	
x	8	9	7	
			6	
5	3	8	2	

	3	2		
x	9	0	7	
			4	
3	6	2	8	



3. Ko'paytirishni ustun ko'rinishida bajaring. Yodda tuting, katta son kichik songa ko'paytirilishi kerak.

$781 \cdot 4$

$3 \cdot 776$

$406 \cdot 6$

$322 \cdot 5$

$6 \cdot 223$

4. Taqqoslang. Qaysi holatlarda hisoblash talab qilinmaydi?

a) $234 \cdot 5$ ☐ $243 \cdot 6$

b) $728 \cdot 4$ ☐ $532 \cdot 8$

d) $820 \cdot 8$ ☐ $913 \cdot 9$

e) $316 \cdot 4$ ☐ $128 \cdot 9$

5. Masalani yeching.

Do'konda maktab formasi 428 000 so'm turadi. Uni chegirmada 299 000 so'mga sotib olish mumkin. Agar chegirmalar vaqtida 3 ta forma sotib olinsa, qancha pulni tejash mumkin?

6. Masalani yeching.

Bitta guldasta 125 000 so'm, bir quti konfet 47 000 so'm turadi. Har birida gul va konfet bo'lgan 3 ta sovg'aga qancha pul kerak bo'ladi?

27. Uch xonali sonni bir xonali songa ko'paytirish



7. Blits savollar. Masalalarga ifodalar yozing.

- a) 4 qadoq margarin uchun n so'm, 2 xaltacha un uchun esa t so'm to'lashdi. Margarin undan necha so'm qimmat?
- b) Kinoteatrda chipta x so'm, bolalar chiptasi esa y so'm turadi. 2 ta kattalar va 3 ta bolalar chiptasi uchun qancha to'lash kerak?
- d) Peshtaxtada d quti olcha sharbati, undan 48 quti kam olma sharbati bor. Olcha sharbati olma sharbatidan necha quti ko'p?







8. Oilada to'rtta bola bor – Malika, Imron, Madina va Lola. Ular 5, 8, 13 va 15 yoshlarda. Qizlardan biri bog'chaga boradi, Malika Imrondan kattaroq. Malika va Madina yoshining yig'indisi uchga bo'linadi. Har bir bolaning yoshini toping.



9. Supermarketdan ro'yxat bo'yicha xarid qilish kerak. Bu mahsulotlarni sotib olish uchun qancha pul ketadi? Tovarlar narxi o'ng tomonda ko'rsatilgan.

Ro'yxat
2 kg sabzi
2 l yog'
5 kg guruch
3 kg go'sht



10. Misollarni yeching, to'rt xonali sonlarni kamayish tartibida qo'yib chiqing. Tovarlar qo'yiladigan chegirma yana qanday ataladi?

A $225 \cdot 4$

N $556 \cdot 3$

D $954 \cdot 9$

O $313 \cdot 6$

I $768 \cdot 5$

S $658 \cdot 4$

K $297 \cdot 8$

T $129 \cdot 9$